2022 yilning yanvar-sentabr oylarida respublika yalpi hududiy mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining ulushi 54,3 foizni tashkil qilib, 2021 yilning mos davriga (55,5) nisbatan foizni tashkil qildi.

Sanoat ishlab chiqarish sohasining yuqori ulushi Shumanay va Bo'zatov tumanlari (jami ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ulushi (100,0 %), Beruniy ulushi (95,8 %), Xo'jayli ulushi (66,5 %), tumanlariga va eng past ulushi Nukus shahri (7,2 %) to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasida tuman bo'yicha jami xizmat ko'rsatish hajmida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Taxtako'pir (jami xizmatlar hajmiga nisbatan ulushi (83,3%), Mo'ynoq (80,3 %), Qorao'zak (80,1 %), Kegeyli (79,0 %), Nukus (79,0 %), Xo'jayli (78,2 %), Shumanay (77,8 %), Ellikqal'a (77,1 %), Qonliko'l (76,7 %), Bo'zatov (75,7 %), tumanlariga to'g'ri keldi.

**X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY
NATIJALARINI**

Foyda. Hisobot ma'lumotlariga ko'ra 2022 yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan 3889,6 mlrd. so'm miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi. 2021 yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 218,8 mlrd. so'mga ko'paygan va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 foizni tashkil qildi.

**2022 yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (+/-), mlrd. so'm</i>	<i>2021 yilning yanvar-avgustiga nisbatan % da</i>
Jami	3889,6	105,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	-	-
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash	-	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	3691,6	112,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	236,5	60,0
Suv bilan ta'minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	-15,2	-
Qurilish	1,8	59,8
Savdo	1,6	177,0
Tashish va saqlash	-28,6	-
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	1,4	70,2
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar	0,5	173,5
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	-	-

2022 yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o'sishi "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ (234,4 mlrd. so'mga), "O'zbekistonaq" AJ (43,4 mlrd. so'm), "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati (45,1 mlrd. so'm), "Qoraqalpoq hududiy elektr tarmoqlari" AJ (2,9 mlrd. so'm)ga to'g'ri keladi. Foydaning pasayishi "O'zpastasanoat" aksiyadorlik jamiyati AJ (0,04 mlrd. so'm) hisobiga to'g'ri keldi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

2022 yilning yanvar-avgust oylari yakunlari bo‘yicha yirik tijorat korxonalarining foydasi 3982,3 mld. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9% tashkil etadi.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Nukus shahriga 3631,9 mld. so‘m (jami foydaning 91,2 %), Taxiatushga 235,9 mld. so‘m (5,9 %), Qo‘ng‘irotda 89,4 mld. so‘m (2,2 %), Nukus tumaniga 2,9 mld. so‘m (0,1 %) va Ellikqal‘a 8,0 mld. so‘mdan 0,2 % to‘g‘ri keladi.


Shuningdek, Shumanay tumanida yirik tijorat korxonalari mavjud emasligi sababli, ushbu tuman bo‘yicha foyda (zarar) miqdori keltirilmagan.

2022 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (+-), mldr. so‘m</i>	<i>2021 yilning yanvar- avgustiga nisbatan % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3889,6	105,8
Nukus sh.	3557,4	111,0
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	0,9	131,5
Beruniy	0,2	33,1
Qorao‘zak	4,2	189,3
Kegeyli	1,2	104,6
Qo‘ng‘irot	89,4	155,2
Qonliko‘l	1,2	51,5
Mo‘ynoq	0,2	21,7
Nukus	2,9	55,7
Taxiatush	235,3	60,3
Taxtako‘pir	-12,7	-
To‘rtko‘l	1,0	118,4
Xo‘jayli	-2,2	-
Chimboy	2,1	89,1
Ellikqal‘a	8,0	113,0

Zararlar. 2022 yilning yanvar-avgust oylarida 8 ta korxona va tashkilotlar tomonidan 92666,6 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘yilgan. Zararning asosiy qismi , “Uzbekistan Airports“ AJ 73810,2 mln. so‘m, O‘zbekiston Respublikasi yog'-moy sanoati korxonalari uyushmasi 2280,0 mln. so‘m, “Dori darmon“ AJ 310,4 mln. so‘m, “O‘zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat vazirligi” 244,5 mln. so‘m va boshqalar 16021,5 mln. so‘m hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**2022 yilning yanvar-avgustida zarar ko'rgan
korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan % da)**



2022 yil yanvar-avgust oylarida 8 ta korxona o'z faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo'lib, ko'rigan zararning umumiy miqdori 92666,6 mln. so'mni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p zarar miqdori. Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati 73810,2 mln. so'm (korxonalar soni 1 ta, 79,7 foiz), Suv bilan ta'minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish 15217,4 mln. so'm (korxonalar soni 1 ta, 0,3 foiz), Elektr gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 848,3 mln. so'm (korxonalar soni 2 ta, 1,0 foiz), Ulgurji va chakana savdo 504,9 mln. so'm (korxonalar soni 2 ta, 0,5 foiz), Professional, ilmiy va texnik faoliyat 5,9 mln. so'm (zarar ko'rgan korxonalar soni 1 ta, Respublika bo'yicha jami zarar miqdorining 0,0 foizi) hissalariga to'g'ri keldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

2022 yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rghan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	<i>Korxona-lar soni</i>	<i>Zarar so'mmasi</i>	
		<i>mln. so'm</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
Jami	8	92666,6	100,0
Savdo	2	504,9	0,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	1	2280,0	2,5
Suv bilan ta'minlash; kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish	1	15217,4	16,4
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	2	848,3	0,9
Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati	1	73810,2	79,7
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	1	5,9	-

**2022 yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rghan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari
(jamiga nisbatan % da)**



**2022 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlar kesimida
zarar kurgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko‘rgan korxonalarining ulushi, % da</i>	<i>Zarar so‘mmasi, mln. so‘m</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10	100,0	92666,6
Nukus sh.	5	80,5	74565,4
Taxiatosh	1	0,7	603,8
Taxtako‘pir	1	16,4	15217,4
Xo‘jayli	1	2,5	2280,0

Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorlik holati¹⁾

2022 yilning 1 sentabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiyligi 2140,9 mlrd. so‘mmi tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan 25,7 mlrd. so‘m yoki jami qarzdorlikning 1,2 foizini tashkil etgan. Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2021 yilning 1 sentabriga nisbatan 170,1 % ni tashkil etib, 10,6 mlrd. so‘mga kupaygan.

2022 yil 1 sentabr holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)

<i>Debitor qarzdorlik jami</i>	<i>%</i>
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ;	48,9
“O‘zpaxtasanoat” AJ	0,6
“O‘zdonmahsulot” AJ	2,4
“O‘zkimyosanoat” AJ	0,7
”Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	2,1
“O‘zbekneftegaz” AJ	0,4
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	1,0
O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi	0,03
MCHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo’shma korxonasi	23,0
“Ustyurt qidiruv-burgulash boshqarmasi” MCHJ	2,3
“Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi	1,4
“Lanextrakt” MCHJ	0,70
Boshqalar	16,5

¹⁾Budget va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

2022 yil 1 sentabr holatiga jami debitor qarzdorliklar hajmi 2140,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi, debitor qarzdorliklarning asosiy qismini “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ 1047,3 mlrd. so‘m (48,9 foiz), “O‘zpaxtasanoat” AJ 12,6 mlrd. so‘m (0,6 foiz), “O‘zdonmahsulot” AJ 50,5 mlrd. so‘m (2,4 foiz), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ 44,7 mlrd. so‘m (2,1 foiz), “O‘zkimyosanoat” AJ 15,5 mlrd. so‘m (0,7 foiz), O‘zbekneftegaz” AJ 7,9 mlrd. so‘m (0,4 foiz), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 20,4 mlrd. so‘m (1,0 foiz), Mchj “Uz-Kor Gas Chemical” qo’shma korxonasi 492,9 mlrd. so‘m (23,0 foiz) “Ustyurt Qidiruv- Burgulash Boshqarmasi” Mchj 49,7 mlrd. so‘m (2,3 foiz) “Zarubejneftegaz-Gpd Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi 31,7 mlrd. so‘m (1,4 foiz) “Lanextrakt” Mchj shaklidagi qo’shma korxonasi 17,0 mlrd. so‘m (0,7 foiz) O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish vazirligi 0,7 mlrd. so‘m (0,03 foiz) hamda boshqalar 718,8 mlrd. so‘m (16,5 foiz) hissalariga to‘g‘ri keldi.

2022 yil 1 sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	<i>Jami, mlrd. so‘m</i>	<i>shundan:</i>			<i>Muddati o‘tgan qarzdor- likning ulushi, % da</i>
		<i>xaridor va buyurtma- chilar</i>	<i>yetkazib beruvchilarga va pudratchi- larga berilgan avanslar</i>	<i>ichki idora- viy</i>	
Jami	25,7	16,1	0,1	1,1	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	25,0	15,2	0,1	1,1	96,5
Tashish va saqlash	0,7	0,7	-	-	2,7
Qurilish	0,2	0,2	-	-	0,8

2022 yil 1 sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	<i>Jami, mlrd. so‘m</i>	<i>shundan:</i>			<i>Muddati o‘tgan qarzdor- likning ulushi, % da</i>
		<i>yetkazib beruvchilar va pudratchi- larga</i>	<i>mehnatga haq to‘lovlar bo‘yicha qarz</i>	<i>Byudjetga davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz</i>	
Jami	8,0	2,9	5,1	-	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	3,5	2,8	0,6	-	43,7
Tashish va saqlash	0,1	0,03	-	-	1,2
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash	4,4	0,6	4,4	-	55,1

**2022 yilning 1 sentabr holatiga vazirlik va idoralarning
kreditor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)**


<i>Kreditor qarzdorlik, jami</i>	<i>%</i>
“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ;	20,4
“O‘zpaxtasanoat” AJ;	0,1
“O‘zdonmahsulot” AJ	1,1
“O‘zkimyosanoat” AJ;	0,5
O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv- trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi	1,4
“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	3,3
“O‘zbekneftegaz” AJ	0,5
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	2,0
“Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi	59,9
“Ustyurt qidiruv-burgulash boshqarmasi” MCHJ	0,9
“Lanextrakt” MCHJ	0,8
MSHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo’shma korxonasi	2,5
Boshqalar	6,6

2022 yilning 1 sentabr holatiga jami kreditor qarzdorliklar hajmi -3365,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi, kreditor qarzdorliklarning asosiy qismi “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ -687,3 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan 20,4 %), “O‘zpaxtasanoat” AJ -3,3 mlrd. so‘m (0,1 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ -109,8 mlrd. so‘m (3,3 %), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ -66,1 mlrd. so‘m (2,0 %), “O‘zdonmahsulot” AJ -38,5 mlrd. so‘m 1,1 %), “O‘zkimyosanoat” AJ -16,4 mlrd. so‘m (0,5%), “O‘zbekneftegaz” AJ -16,8 mlrd. so‘m (0,5 %), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv- trikotaj sanoati korxonalari uyushmasi -45,8 mlrd. so‘m (1,4 %) “Zarubejneftegaz-GPD Tsentralnaya Aziya” MCHJ shaklidagi operatsion kompaniyasi -2018,1 mlrd. so‘m (59,9 %) MSHJ shaklidagi “Uz-Kor Gas Chemical” qo’shma korxonasi -85,1 mlrd. so‘m (2,5 %), “Ustyurt qidiruv-burgulash boshqarmasi” MCHJ -31,7 mlrd. so‘m (0,9 %), Lanextrakt” MCHJ -27,9 mlrd. so‘m (0,8%) hamda boshqalar -221,5 mlrd. so‘m (6,6 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.

XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(2022 yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2022 yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni
*(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)*




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(ijtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022-yil yanvar-sentabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar**
(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan
yilning shu davriga nisbatan **10,1** foizga oshdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari

■ Mikrofirmalar

■ Kichik korxonalar




- Dehqonchilik, chovachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish
- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi




**Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022- yil 1-oktbar holatiga ko'ra, birlikda)**



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonalarining umumiyligi o'tgan yilning
shu davriga nisbatan 4,8 %
foizga oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra,
sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni
3 480 tani tashkil etib, o'tgan yilning
mos davriga nisbatan 4,8 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 5,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,5 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 26,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1%) o'sishi kuzatildi elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 78,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,0 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,5 %) tashkil etdi.

*Korxonalar va tashkilotlar
faoliyatining umumiyligi ta'rifi*


**Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022 yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida



2022- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 497 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4% ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o‘tgan yilga nisbatan 98,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish 35,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 13,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 92,9 % ni (jami qurilishdagi ulushi 27,3%) tashkil etdi.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022 yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida
(2022 yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 7 132 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,6 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 7,3 % ga (jami savdodagi ulushi 68,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 18,2 % ga (jami savdodagi ulushi 22,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 19,3 % ga (jami savdodagi ulushi 8,8 %) o'sishidir.



**Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**

- Sog'lijni saqlash sohasidagi faoliyat

431



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

28




- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


10




Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni





Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**




2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 435 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 1,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,0 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 97,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(2022 yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 2 254 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 285 ga yoki 14,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 082 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 187 ga yoki 9,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 269 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 55,0 % ga tashkil etgan.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2022 yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 17 177 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 652 ga yoki 10,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 347 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 417 taga yoki 9,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 371 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 89,4 % ni tashkil etgan.



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining
davlatlar kesimida soni**
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 183 tani tashkil etib, ulardan 181 tasi yoki 98,9 % faoliyat ko'rsatmoqda.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni
(2022 yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	181	104	77
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	5	2	3
Beruniy	10	5	5
Bo'zatov	7	7	0
Qorao'zak	11	7	4
Kegeyli	6	5	1
Qo'ng'irot	11	8	3
Qonliko'l	7	3	4
Mo'ynoq	37	24	13
Nukus	9	4	5
Taxiatosh	8	2	6
Taxtako'pir	4	2	2
To'rtko'l	7	5	2
Xo'jayli	3	2	1
Chimboy	4	3	1
Shumanay	3	1	2
Ellikqal'a	6	3	3
Nukus sh.	43	21	22

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Nukus shahrida 43 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,8 %), Mo'ynoq 37 ta (20,4 %), Qorao'zak va Qo'ng'irotda 11 ta (6,1%), Beruniy 10 ta (5,5%), Nukus tumani 9 ta (5,0 %), Taxiatosh tumanida 8 ta (4,4 %), Qonliko'l va Bo'zatov 7 ta (3,9 %), Kegeyli va Ellikqal'a tumanlarida 6 ta (3,3 %) tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (27,9 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,6 %), Ellikqal'a (6,3 %), Qo'ng'iroq (5,9 %), Xo'jayli (5,3 %), Nukus (4,2 %), Chimboy (4,2 %), Kegeyli (3,2 %), Taxiatosh(3,1%), Qorao'zak (2,8 %), Mo'ynoqda(2,7%), Qonliko'l (2,6%), Shumanay tumanlarida (2,4 %), Tuxtako'pir (1,9 %) va Bo'zatov (1,6%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022 yil yanvar- sentabr oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (23,4 %), To'rtko'l (9,4 %), Ellikqal'a (8,5%), Beruniyda (8,4 %), Amudaryo (8,3%), Qo'ng'iroq (7,0%), Xo'jayli (4,5 %), Chimboy (4,0 %), Kegeyli (4,0 %), Taxiatosh (3,3 %), Nukus tumanida (3,9 %), Qorao'zak (3,1 %), Tuxtako'pir va Mo'ynoqda (2,8 %), Qonliko'l va Shumanay (2,4 %), Bo'zatov (1,7 %) tumanlari ulushiga tegishli.



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining
hududlar kesimidagi soni**
(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimidagi soni**
(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (32,5 %), To'rtko'l (9,9 %), Beruniy (7,4 %), Amudaryo (7,0 %), Xo'jayli va Qo'ng'iroq tumanlarida (5,5 %), Nukus (4,9 %), Ellikqal'a (4,5 %), Chimboy (4,4 %), Kegeyli (3,5 %), Mo'ynoq (3,0 %), Qorao'zak (2,9 %), Taxiatosh tumanida (2,5 %), Bo'zatov (1,8 %), Qonliko'l (1,7 %) Shumanay (1,6 %), Taxtako'pir (1,4 %) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagii "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

XII. O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2022 yilning yanvar-sentabr oylari holatiga)**

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3132,0 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslarning daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Nukus shahrida 4186,6 ming so‘m (Respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 133,7 foiz), Taxiatosh tumanida 3547,3 ming so‘m (113,3 foiz) va Qo‘ng‘irot tumanida 3466,7 ming so‘m (110,7 foiz) ni tashkil etgan.


**Yuridik shaxslarda xodimlar soni va mehnatga haq to‘lash tarzida
hisoblangan daromad**

*(2022 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi korxonalari hamda
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

	Xodimlar soni, kishi	Mehnatga haq to‘lash tarzida hisoblangan daromad mlrd.so‘m	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
Respublika bo‘yicha jami	157 850	4 449,5	3132,0
shu jumladan:			
Sanoat	14 740	606,6	4 572,7
Qurilish	2 147	53,3	2756,4
Savdo	933	23,7	2826,7
Tashish va saqlash	7 274	273,5	4177,2
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	77	1,3	1905,5
Axborot va aloqa	1 134	37,2	3647,9
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	2 727	196,0	7986,2
Ta’lim	76 017	1 673,5	2446,1
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish	26 919	661,2	2729,0
San’at, ko‘ngil ochish va dam olish	2 737	61,7	2504,0
Boshqa faoliyat turlari	23 145	734,0	3523,9

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi korxonalari hamda
kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)



Respublika bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3132,0 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,1 % ga o'sgan.

O'rtacha ish haqining yuqori miqdorlari iqtisodiy faoliyat turlaridan Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilikda 7986,2 ming so'm (Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2,5 barobarga yuqori), Sanoat sohasida 4572,7 ming so'm (Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 46,0 % ga yuqori), Tashish va saqlash sohasida 4177,2 ming so'm (Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 33,4 % ga yuqori) hamda Axborot va aloqada 3647,9 ming so'm (Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 16,5 % ga yuqori) ekanligi kuzatildi.



**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(yanvar-sentabr oylarida qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>O’sish sur’ati, % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2629,0	3132,0	119,1
Nukus sh.	3459,9	4186,6	121,0
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	1969,2	2213,2	112,4
Beruniy	1947,5	2315,6	118,9
Bo‘zatov	1822,3	2118,4	116,2
Qonliko‘l	2090,4	2492,8	119,2
Qorao‘zak	1925,0	2249,9	116,9
Kegeyli	2254,3	2709,6	120,2
Qo‘ng‘irot	3014,0	3466,7	115,0
Mo‘ynoq	1992,2	2681,3	134,6
Nukus	2301,9	3130,4	136,0
Taxiatosh	2832,0	3547,3	125,3
Taxtako‘pir	2100,1	2266,0	107,9
To‘rtko‘l	2152,7	2561,3	119,0
Xo‘jayli	2212,7	2686,4	121,4
Chimboy	2140,1	2505,9	117,1
Shumanay	2126,1	2365,2	111,2
Ellikqal‘a	2230,4	2568,7	115,2

Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

Ish haqi. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quydagilarni ko'rsatmoqda.


Ta'lim sohasida 1460 ta mussasada 76017 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 48,2%) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 673,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 37,6 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2446,1 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 15,7 % ga o'sgan.

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari)

Oliy ta'limda 4953,8 ming so'm	O'rta maxsus ta'limda 2270,1 ming so'm
Ta'limda jami 2446,1 ming so'm	
Umumiy o'rta ta'limda 2582,2 ming so'm	Maktabgacha ta'limda 1481,3 ming so'm

Hududlar




***O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi***



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 82 ta korxonada **14740** nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **606,6** mldr. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulishi 13,6 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **4572,7** ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 12,3 % ga o'sgan.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'm)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Mo'ynoq tumanida 8538,9 ming so'mni (Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 186,7 % yuqori), Nukus shahrida 8186,8 ming so'mni (179,0 %), Taxiatosh tumanida 6940,9 ming so'mni (151,8 %) va Nukus tumanida 4956,5 ming so'mni (108,4) tashkil etgan bo'lsa, Beruniy tumanida 1439,1 ming so'mni (31,5 %), Chimboy tumanida 1510,9 ming so'mni (33,0 %), Ellikqal'a tumanida 1589,9 ming so'mni (34,8 %) hamda Qonliko'l tumanida 1718,3 ming so'mni (37,6 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'imloqda.



Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **92** ta muassasada 26919 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib ularga hisoblangan ish haqi fondi 661,2 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 14,9 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2729,0 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 20,9 % ga o'sgan.

Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2022 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari ming so'mda)



Hududlar

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, Qoraqalpog'istonda ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Beruniy tumanida 3030,9 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 111,1 %), Chimboy tumanida 2957,1 ming so'mni (108,4 %), Xo'jayli tumanida 2890,7 ming so'mni (105,9 %) va Nukus shahrida 2886,5 ming so'mni (105,8 %) tashkil etgan bo'lsa, Bo'zatov tumanida 2182,6 ming so'mni (80,0 %), Qo'ng'iroq tumanida 2384,2 ming so'mni (87,4 %) va To'rtko'l tumanida 2409,7 ming so'mni (88,3 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.


O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turida 75 ta muassasada 2727 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,7 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 196,0 mlrd. so‘mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,4 % ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7986,2 ming so‘mni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 31,7 % ga o‘sgan.

**Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo‘yicha
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**


(2022 yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirdorlik subyektlaridan tashqari,
ming so‘mda)



Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini respublika hududlari bo‘yicha Qoraqalpog‘istonda ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Nukus shahrida 9320,7 ming so‘mni (respublikadaga o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 116,7 %) va Taxiatosh tumanida 8147,4 ming so‘mni (102,0 %) tashkil etgan bo‘lsa, Beruniy tumanida 4175,3 ming so‘mni (52,3 %), Shimboy tumanida 6420,4 ming so‘mni (80,4 %) va Qo‘ng‘irot tumanida 6602,4 ming so‘mni (82,7 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy iqtisodiy holati

**O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning
mos davriga nisbatan o'sish sur'ati**
(2022 yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlaridan tashqari % da)



ming so'm



XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-oktabr holatiga 1970,6 ming kishini tashkil etib, 2022-yil boshidan 22,1 ming kishiga ya’ni 1,1 % ga o’sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 964,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 1006,1 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E’tibor bering:

2022 yil yanvar-sentabr oylarida

- Aholi soni **21,1 ming kishiga** ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **30,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **7,2 ming nafarni** tashkil etdi.
- Nikohlar soni **10,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **1,6 ming nafarni** tashkil etdi

**2022-yilning
Yanvar-sentabr oylarida**

Yil boshida
doimiy aholi soni
1 948 488 kishi
(2022 yil 1 yanvar holatiga)



30,9 ming
bola
Tug‘ilganlar soni



7,2 ming
kishi
O’lganlar soni



6,0 ming
kishi
Ko‘chib kelganlar
soni



7,6 ming
kishi
Ko‘chib ketganlar
soni

Doimiy aholi soni

1 970 608 kishi

(2022-yilning 1-oktabr holatiga)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾
(2022-yilning 1- oktabr holatiga, ming kishi)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 970,6	964,5	1 006,1
Nukus sh.	333,4	333,4	-
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	207,5	53,7	153,8
Beruniy	200,1	70,7	129,4
Bo‘zatov	21,9	5,5	16,4
Qonliko‘l	52,9	13,3	39,6
Qorao‘zak	54,0	16,4	37,6
Kegeyli	74,0	29,9	44,1
Qo‘ng‘irot	134,1	84,7	49,4
Mo‘ynoq	33,4	14,8	18,6
Nukus	52,6	10,7	41,9
Taxiatosh	76,1	54,5	21,6
Taxtako‘pir	40,8	17,1	23,7
To‘rtko‘l	223,8	84,5	139,3
Xo‘jayli	126,9	80,9	46,0
Chimboy	114,8	58,9	55,9
Shumanay	57,4	15,0	42,4
Ellikqal‘a	166,9	20,5	146,4

¹⁾ dastlabki ma'lumot

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni
(1 oktabr holatiga ming kishi)**

	2021 y.	2022 y.	O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 939,5	1 970,6	101,6
Nukus sh.	327,4	333,4	101,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	203,7	207,5	101,9
Beruniy	196,4	200,1	101,9
Bo‘zatov	21,8	21,9	100,5
Qorao‘zak	53,4	54,0	101,1
Kegeyli	73,4	74,0	100,8
Qo‘ng‘irot	132,2	134,1	101,4
Qonliko‘l	52,1	52,9	101,5
Mo‘ynoq	32,8	33,4	101,8
Nukus	51,6	52,6	101,9
Taxiatosh	75,2	76,1	101,2
Taxtako‘pir	40,5	40,8	100,7
To‘rtko‘l	220,0	223,8	101,7
Xo‘jayli	124,9	126,9	101,6
Chimboy	113,6	114,8	101,1
Shumanay	56,8	57,4	101,1
Ellikqal‘a	163,7	166,9	102,0


Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy harakati

	<i>kishi</i>			<i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i>	
	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.¹⁾</i>	<i>o‘sish, kamayish</i>	<i>2021 y.</i>	<i>2022 y.¹⁾</i>
Tug‘ilganlar	28917	30863	1946	20,0	21,1
O‘lganlar	6597	7168	571	4,6	4,9
Tabiiy o‘sish	22320	23695	1375	15,4	16,2
Nikohlar	11256	10895	-361	7,8	7,4
Ajralishlar	1090	1554	464	0,8	1,1

Tug‘ilish darajasi. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida tug‘ilganlar soni 30 863 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (28 917 kishi) nisbatan 1 946 kishiga yoki 6,7 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 21,1 promilleni tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (20,0 promille) nisbatan 1,1 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-sentabr oylarida) (1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darjasasi Nukus shahrida 18,7 dan 20,5 promillega, Beruniyda 20,1 dan 24,3 promillega To‘rtko‘lda 20,1 dan 21,9 promillega, va Ellikqal‘ada 21,4 dan 23,2 promillega ko‘payishi kuzatilgan.


¹⁾ dastlabki ma'lumot

Tug'ilish. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 30,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tug'ilganlarga faqat tiriktug'ilganlar inobatga olinan) mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 21,1 promilleni tashkil etdi hamda 2021 yilning mos davriga nisbatan 1,1 promillega ko'payganligi (2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 20,0 promille bo'lgan) kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti (2022 yilning yanvar-sentabr oylarida)




O'lim darajasi. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida o'lganlar soni 7168 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (6 597 kishi) nisbatan 571 kishiga yoki 8,7 foizga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil qildi (2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,9 promille).

**2022 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy o'lim sabablari bo'yicha
vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)**



O'lim koeffitsientlari




O'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajasi Nukus shahrida (4,4 dan 5,3 promillega), Kegeylida (4,8 dan 5,9 promillega), Qorao'zakda (4,9 dan 5,9 promillega), Kegeylida (5,0 dan 5,9 promillega) va Bo'zatovda (4,0 dan 4,7 promillega) ko'payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 10,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,4 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va koeffitsienti
(2022 yilning yanvar-sentabr oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYo organlari tomonidan 1,6 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti
(2022 yilning yanvar-sentabr oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2022 yilning yanvar-sentabr oylari FHDYo organlarida 10 895 ta nikohlar va 1554 ta ajralishlar ro'yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 7,4 ta nikoh (2021 yilning tegishli davrida 7,8 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2021 yilning tegishli davrida 0,8 ta) to'g'ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(yanvar-sentabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	2021 y.	2022 y. ²⁾	2021 y.	2022 y. ²⁾
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11256	10895	1090	1554
Nukus sh.	2075	1837	215	346
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	1287	1212	106	133
Beruniy	1028	1173	68	143
Bo'zatov	130	115	13	14
Qonliko'l	319	254	22	49
Qorao'zak	258	262	18	39
Kegeyli	462	356	41	45
Qo'ng'iroq	819	946	99	121
Mo'ynoq	183	156	7	26
Nukus	378	344	37	49
Taxiatosh	371	391	62	62
Taxtako'pir	193	167	16	42
To'rtko'l	1201	1133	114	122
Xo'jayli	721	715	100	113
Chimboy	603	576	60	99
Shumanay	275	248	38	33
Ellikqal'a	953	1010	74	118

Migratsiya¹(Ichki va tashqi). Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida Respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6027 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 7602 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


  	Ko'chib kelganlar Ko'chib ketganlar Migratsiya saldosi	2021 yilning yanvar-sentabr oylarida 9610 16169 -6559	2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 6027 7602 -1575
---	---	---	--

2022 yilning yanvar-sentabr oylarida migratsiya qoldig'i minus 1575 kishiga (2021 yilning shu davrida minus 6559 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chimboy (minus 378), Kegeyli (minus 274) va Amudaryo (minus 272) tumanlarida kuzatilgan.


yanvar-sentabr oylarida

Soni, ming kishi

Ko'chib kelganlar



Ko'chib ketganlar



¹shahar va tumanlar hamda hududlar aro ichki migratsiyani qo'shgan holda
²⁾dastlabki ma'lumot



Poytaxtdagi demografik xolat



Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2022 yil 1 oktabr holatiga 333,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 4,4 ming kishi ga yoki 1,3 % ga o'sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati

(1000 aholiga nisbatan promille)



2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 5,1 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 20,5 promilleni tashkil etdi (2021 yilning mos davrida 18,7 promille bo'lgan).

FXYDYo organlarida 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida 1837 ta nikoh va 346 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 7,4 promilleni tashkil qilib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 1,1 promillega kamaygan (2021 yilning mos davrida 8,5 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,4 promilleni tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega ko'paydi. 2021 yilning mos davrida 0,9 promille bo'lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim

(yanvar-sentabr holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

